

## **ZAMONAVIY KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING DOLZARB MASALALARI**

*Isarova Shoira Bozorbekovna*

*Jizzax viloyati Forish tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi 3-umumta'lim maktabi amaliyotchi psixolog*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada kasb bu insonning ijtimoiy iqtisodiy faoliyat turi ekanligi , moliyaviy to'qlik yoki yetishmovchilik uning natijasida ekanligi, kasb ta'lifi psixologiyasining asosiy muammosi va shaxsning kasbga yaroqliliginini aniqlash ,tayyorlash,mehnat faoliyatiga yo'naltirish masalalari haqida tushuncha beriladi.

**Kalit so'zlar:** Kasb, kasb psixologiyasi, kasbiy faoliyat, bilish jarayonlari, nutq, xotira, kasblar tasnifi, kasblar haqida tushuncha.

### **KIRISH**

Kasb – inson ish faoliyatining ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunardir. Kasbga umumiyligi yoki maxsus ma'lumot hamda amaliy tajriba yo'li bilan erishiladi. Kasb ichida mehnat faoliyatining eng tor xarakteri bilan ajralib turuvchi ixtisoslari bor. Ba'zi kasblarda bir qancha ixtisoslar masalan: chilangar kasbida – remontchi chilangar, asbobsoz chilangar, yig'uvchi chilangar kabi yo'nalishlar mavjud. Dunyoda 60 ming (qiyoslash uchun Rossiyada 20 ming) O'zbekistonda 6 mingdan ziyod kasblar mavjud.\_Shuni aytish joyizki jamiyat rivojlangan sari kasblar ham ko'payib boradi. SHu bilan birga kasb bu jamiyatdagi qabul qilingan huquqiy – normativ qonunlarga amal qilishi zarur bo'ladi.

Kasb – hunarli bo'lsh inson uchun zarur bir ehtiyoj ekanligini buyuk avlodlarimiz o'z asarlarida aytib o'tganlar. Deylik Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida shunday yozadi "Bas, agar aqling bo'lsa xunar o'rgang'il, nedinkim hunarsiz aql – boshsiz tan, suratsiz badandekdir... Ey farzand, ogoh bo'lki, xunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf" etkurmas." Hozirda o'sib kelayotgan yoshlar o'z qiziqishlaridan kelib chiqib minglab kasblar ichidan o'zi uchun qiziqarli bo'lgan kasbni tanlab olishlari va o'z hayotlarini mazmunli, yaxshi o'tkazishlari uchun intiladilar. Ularga bu kasblarni tanlashlarida kasb psixologiyasining o'rni va ahamiyati juda katta. " Men kelajakda kim bo'laman?", "Yaxshi yashashim uchun qaysi kasbni tanlashim kerak?", "Mendagi iqtidor shunga etadimi?", "Kelajagimdan qoniqamanmikan?" degan ko'lab savollar yoshlarni o'ylantiradi. Bu savollarga javob olish uchun ular ko'plab kuzatadilar, hayotdan ma'lum bir malakalar olishga intiladilar. Kattalarni maslahatlarini o'ylaydilar va ikkilanib yuradilar. Kasb psixologiyasi esa ularni to'g'ri yo'lga solishga harakat qiladi. Izlanuvchi yoshlar kasb – xunar va uni egallash, hayotlarini, kelajaklarini hal qiluvchi omil ekanligini bilib boradilar. Shulardan kelib

chiqib kasb – bu inson hayoti uchun zarur bo‘lgan, jamiyatdagi huquqiy normalarga javob beradigan, insonni kelajagini belgilab beradigan o‘ziga xos murakkab bo‘lgan jarayon deb belgilashimiz mumkin. Kasbga xos bo‘lgan jarayonlar, ularni egallahash, tanlash inson psixologiyasi bilan bog‘liq. Kasb psixologiyasi aynan shunday murakkab jarayonlarni o‘rganish orqali yoshlarni o‘zлari qiziqqan kasbga yo‘nalish beruvchi murakkab fan hisoblanadi. Har bir kasbning o‘ziga xos bo‘lgan tomonlari, insonlarni o‘ziga jalb qila oladigan qirralari mavjud bo‘lib, inson bu jarayonlarni kuzatib borib shu kasbni egallahsha intiladi.

Bu jarayonlarda inson o‘zini ruhiyati bilan shu kasbga xos bo‘lgan psixologik tomonlarni ham shakllantirib boradi. Jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlar yoshlarni ham kasb tanlashda o‘ylantirib qo‘ymoqda. Ko‘plab yangi kasblar paydo bo‘lmoqda, ularni fan yangiliklari, texnika va texnologik yangiliklar asosida ko‘plab mutaxassisliklar bilan tanishishlari kasb tanlashda qiyin ahvolga solib qo‘ymoqda. Bundan tashqari jamiyatni olg‘a rivojlanib borishi yoshlarni olayotgan kasblarini raqobatbardoshligini, kerakligini va yashashlari uchun imkoniyatlar yaratib bera olishlariga ishontira bilishini ham talab qilib bormoqda.

Hayotiy jarayonlar, yashashga beriladigan imkoniyatlar, kasbga bo‘lgan intilishlar tabiiy ravishda amaliy psixologiyaning bir bo‘lagi bo‘lgan kasb psixologiyasiga bo‘lgan talabni zaruriy qilib qo‘ydi va bu fanni paydo bo‘lishiga olib keldi. Hozirda O‘zbekistonda bu fan endi rivojlanishi kerak bo‘lgan va yoshlarni tarbiyalashda, ularga kasb tanlashlariga yordam beruvchi asosiy mutaxassislik fani bo‘lib bormoqda. Kasb psixologiyasini mohiyati bu insonni kasbga xos xatti – harakatini va kasb tarixi bilan bog‘liq tomonlarni ko‘rsatib berish, shuningdek yoshlarni, kasb tanlovchilarni o‘zi qiziqqan kasbni tanlashlarida yo‘nalishlar berish, keyinchalik kasbdan ketishlariga yordam berish kabilar hisoblanadi. Dunyoga kelgan bola haqida, uning kelajagi haqida, qanday kasbni egallashi haqida ko‘proq uning ota – onasi bosh qotiradi. Bolani maktabga chiqqanidan boshlab uning ota – onasi “Mening bolam keljakda vrach bo‘ladi”, yoki ma’lum bir kasbni oldindan tayyorlab qo‘yadilar. Lekin hayotni o‘zi bolani shaxs sifatida rivojlanishi, biologik taraqqiyoti, psixologik imkoniyatlari asosida o‘ziga xos bo‘lgan kasbni

tanlashlariga imkoniyat yaratadi. Dunyoga kelgan bolada kurtak tarzida o‘ziga xos bo‘lgan imkoniyatlar bo‘ladi. Bola rivojlanib borgan sari unda ma’lum bir tamonga ixtidorlik ham taraqqiy etib boradi. SHaxs bo‘lib borayotgan bolada psixologik xususiyatlar yuzaga chiqib, uni borliqqa bo‘lgan qiziqishini ortirib boradi. Ayrim bolalar yosh davrlaridanoq o‘simgiliklarga, ularning tuzilishlariga qiziqadilar, ayrimlari xarakatdagi xashoratlarga, xayvonlarga qiziqadilar.

Qo‘ng‘izni ko‘rgan bola uni xarakatlanishini tekshirib uni nima xarakatlantirmoqda degan savol bilan tekshirib ko‘radilar. Uni bo‘laklarga ajratadilar. Bunday bolalardan ko‘plab yaxshi vrachlar, injinerlar, konstrukturlar, qassoblar

chiqadi. Keyinchalik bunday shaxslar o‘zida shu kasbga xos bo‘lgan xususiyatlarni rivojlantirib boradilar. Bular ularning qiziqishlaridan kelib chiqadi. Shaxs sifatida bolada shu sohani bilishga ehtiyojlar rivojlanadi. Tanlagen mutaxassisligi bo‘yicha bilimlar to‘plab boradi. Bu maktabda, oliygohda, atrofdagilarning aytib berishlari va o‘zining mustaqil o‘rganishlari bilan shakllanib boradi. Maktabda bolalarga kasb bilan bog‘liq bo‘lgan tanishtirish darslarini ham tashkil etish zarur bo‘ladi. Bunda bolalar ko‘pchilik kasblar haqida bilib oladilar va kasb tanlashlari uchun imkoniyatlar kengayadi. Ularni yuqori sinflarga o‘tib borishlari bilan birga keyingi etaplarda qaysi kollejga va litseyga kirishlari ham aniqroq bo‘lib boradi. Ular o‘zlari qiziqqan kasbni olishga mustaqil qarorlar qabul qilgan holda intiladilar.

Yoshlarning kasb tanlashlari maktabdan boshlanadi. Bunga ularni tayyorlab borish zarur bo‘ladi. Buni psixolog olim Anvar Jalolov o‘zining “Kasb qanday tanlanadi” kitobida shunday ko‘rsatib beradi. Xilma – xil va qiziqarli kasblarni tanlashning asosiy maqsadi yaxshi yashash va yaxshi kasbni tanlash hisoblanadi. O‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan kasb insonni har doim o‘z ustida ishlashga, uni yaxshiroq bilishga olib keladi. Insonda kasb tanlash jarayonini yana shu muallif quyidagicha belgilaydi. Insonda ma’lum kasbga, uni egallahsga xavas, mayil, orzu, ishtiyoyq, xafsala bo‘lmasa u hech qanday kasbni egallay olmaydi. Insondagi shu jarayonlar odamning o‘z kelajagini to‘g‘ri anglashga, tushunishga olib keladi. Unda istak, xohish paydo bo‘ladi. Bular bolada ma’lum bir maqsadni shakllanishiga va bu yo‘lda iroda kuchini sarf qilishga olib keladi. Irodali inson o‘z maqsadi sari intiladi va orzu havaslariga erishadi. Bunda bolaBunda bolada paydo bo‘luvchi xavas atrofdagi insonlarni kuzatish orqali, ularga aytilgan maqtov so‘zlarini tinglash va uning mahoratiga qoyil qolish, odamlarni uning mahoratini maqtashlari, bu insonni bilimdonligi, qo‘lidan ko‘plab ishlar kelishini kuzatishi unda shu insonga o‘xshashga xavasni uyg‘otadi. Unda orzu, armon, tilak, ishtiyoyq va xafsala paydo bo‘ladi.

Bu jarayonlar bolada uyg‘onayotgan ehtiyojlar va manfaatlar bilan bog‘liq bo‘lib uni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirishning xissiyotlari, irodalari bilan bog‘liq jarayondir. Katta bo‘lib borayotgan bolada xavas paydo bo‘ladi. Kasbga nisbatan olganda bolani shu kasbga qiziqishi, intilishi, mayli, xohish, istak va orzusi bo‘lib ko‘zga tashlanadi. Bu yo‘lda bola o‘ziga tilak tilab shu kasbni egallahsga bo‘lgan intilishi sodir bo‘ladi. Agarda bola o‘z tilaklarini xafsala bilan amalga oshirmsa, xarakat qilmasa bu armon va orzu bo‘lib qoladi. SHuning uchun u zo‘r ishtiyoyq bilan xarakat qilishi va armonlarini amalga oshirishi zarur bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki bu jarayonlar insonga xos bo‘lgan psixologik jarayonlarni tashkil etib. Insonning maqsadini vujudga kelishining asosi hisoblanadi. Albatta bu jarayonda insondan iroda kuchi ham talab qilinadi. Ishtiyoyq bu – zo‘r istak, xohish hisoblanadi. Yoshlarni kasb tanlashlari yo‘lidagi bunday jarayonlarni o‘rgangan psixolog olimlar ularni

quyidagicha ta'riflaydilar. Insonni anglash darajasiga ko'ra kasb tanlashda quyidagi tomonlar ta'riflanadi.

**Istak** – intilishning shunday bir turidirki, bunda inson faqatgina o'zining hozirgi holatidan norozi ekanini his qilib tursa ham, lekin qanday maqsadga intilayotganini, binobarin, bu maqsadga erishishning yo'1 – yo'riqlarini aniq bilmaydi. Bunda kishi nima istayotganini o'zi anglab etmaydi. Bola o'zi nimani istayotganini anglamas ekan bu istakni amalga oshirib bo'lmaydi.

Insondagi istak ma'lum darajada anglangan bo'lsa, tilak – xavasga aylanib ketishi mumkin.

Kasb va kasbiy psixologik jarayonlar kasb tanlovchidan quyidagilarni talab qiladi:

- Umumta'lism muktablarida beriladigan ta'lism darajalaridagi bilimlarga ega bo'lishni;
- Kasb tushunchasining ta'rifini, uning tabiatini, xususiyatlarini kasblar sonini va turlarini bilishni;
- Kasbni inson hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunish va u haqida tasavvurga ega bo'lish;
- Kasb tanlashga kerak bo'lgan idrokni, xohishni mavjud bo'lishi; • O'z maqsadi va manfaatini to'g'ri anglab olgan bo'lishi; • Kelajagi haqida tasavvurlarni bo'lishi.

Kasb tushunchasi quyidagilar bilan tavsifanadi:

- -Bu mehnatning alohida turi bo'lib, psixologdan qator mutaxassislar bilan hamkorlik qilishini talab etadi.
- -Bu doimiy tayyorgarlikni talab etuvchi mehnat.
- -Bu bajarilgan ishga rag`bat talab etuvchi mehnat.
- -Bu ijtimoiy foydali mehnat •-Bu shaxsga jamiyatda muayyan mavqe beruvchi mehnat.

Shu o'rinda kasb va mutaxassislik terminlarining mazmun va mohiyatiga alohida tuxtalib o'tgan holda ularning ma'nolarini farqlab o'tamiz,

Kasb – bu jamiyat uchun zarur bo'lgan, ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida chegaralangan, insondan jismoniy, aqliy, ma'naviy kuch talab etuvchi va sarflangan kuch evaziga insonga mavjud bo'lish hamda rivojlanish imkonini beruvchi faoliyat sohasi. Mutaxassislik – bu bitta kasb ichida tor doiradagi faoliyat turi.

“Kasb” tushunchasining mohiyatini chuqurroq anglash uchun mashhur psixolog S.M.Bogoslovskiyning fikrini keltirish joiz. Kasb –bu shunday faoliyatki, shaxs u orqali jamiyat hayotida faol ishtirok etadi va uning uchun moddiy manba vazifasini bajaradi va kasb orqali shaxs o'zini o'zi namoyon etadi.

• Ko'pchilik qandaydir muammoni hal qilib o'zini “yaxshi psixolog” deb hisoblab adashadi. “Ommaviy psixologiya” mavjud narsa bo'lib, ayrim psixolog mutaxassislar

o'zlarining ijtimoiy hayot tajribalariga asoslanib, ommaviy psixologiyaga murojaat qiladilar. Biroq mutaxassislar ommaviy va mahalliy psixologlarni farqlab berdilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. A.Jalalov KASB QANDAY TANLANADI. 2010 Y. 62 b.
2. I.A.Karimov Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.1998.17b
3. Kaykaus. "Qobusnoma" T., 1994 y. 26 b.
4. Gurevich K.M. Дифференциальная психология и психодиагностика. 2008 y. 21b.
5. Ziyo.net
6. S.X.Jalilova Kasb Psixologiyasi.2010y
7. Sobirovna, U. M. (2022). INTERACTIVE LEARNING METHODS USED IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY COURSES. *Open Access Repository*, 9(11), 106-113